
XALQARO EKSPERT ISHTIROKIDA SEMINAR

Farg'ona viloyati IIB HPB Xotin-qizlar va ijtimoiy masalalar bo'limi tashabbusi bilan "Qayta va takror sodir etiladigan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish" mavzusida seminar-trening tashkil etildi.

Tadbirda BMTning Gender tengligi hamda ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo'yicha tuzilmasining yurtimizdagi ekspert-konsul'tanti ham ishtirok etdi.

Farg'ona davlat universitetining xotin-qizlar masalalari bo'yicha mas'ul mutaxassisleri, psixologlar, mahalla otinoylari, nodavlat tashkilotlar vakillari ishtirok etgan seminarda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish kabi masalalarda o'zaro fikr almashildi.

Ekspert-konsul'tant mavzuga oid xalqaro tajribalar, shu yo'nalishda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar haqida tahliliy ma'lumotlar bilan o'rtoqlashdi. O'z maslahat va tavsiyalarini berdi.

Abduvosit SIDIQOV, "Postda" muxbiri.

2022-09-27 16:08:00